

ABU NASR FOROBIY IJODINING O'RGANILISHI  
(M.M.XAYRULLAYEV TADQIQOTLARI MISOLIDA)

Mardiyeva Yulduz Ubaydullayevna

SamDChTI mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ilk musulmon uyg'onish davri vakili, Muallim us-Soniy -Abu Nasr Forobiy faoliyatiga izoh berilib, uning faoliyati natijasida yunon madaniyati va unda keltirilgan ilmiy g'oyalarning fanga kiritilishi to'g'risida qisqacha ma'lumotlar keltiriladi. Shu bilan birgalikda olim faoliyatida uchragan yangi ilmiy g'oyalar asosida unon olimlarining g'oyalari boyitilgani, o'rta asr sharq xalqlari pedagogikasining olim faoliyati natijasida yanada boyitilgani o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** Uyg'onish davri, Falsafa, Mantiq, Ritorika, Pedagogika, Etika, Ideal jamoa.

**Аннотация:** В данной статье комментируется деятельность Муаллима ус-Сани-Абу Насра Фараби, представителя периода раннего мусульманского Возрождения, и даются краткие сведения о внедрении греческой культуры и представленных в ней научных идей в науку в результате его деятельности. В то же время идеи греческих ученых обогатились на основе новых научных идей, встретившихся в творчестве ученого, а педагогика ближневосточных народов еще больше обогатилась в результате работы ученого.

**Ключевые слова:** Возрождение, Философия, Логика, Риторика, Педагогика, Этика, Идеальное сообщество.

**Annotation:** This article comments on the activities of Muallim us-Sani-Abu Nasr Farabi, a representative of the early Muslim renaissance period, and gives brief information about the introduction of Greek culture and the scientific ideas presented in it into science as a result of his activities. At the same time, the ideas of Greek scientists were enriched based on the new scientific ideas encountered in the work of the scientist, and the pedagogy of the Middle Eastern peoples was further enriched as a result of the work of the scientist.

**Keywords:** Renaissance, Philosophy, Logic, Rhetoric, Pedagogy, Ethics, Ideal community.

**Kirish:** O'rta asr uyg'onish davrining mashhur mutaffakkiri Abu Nasr Muhammad al-Forobiy bo'lib, o'zining 160 dan ortiq asari bilan nafaqat Osiyo balki jahon ilm fanining turli yo'nalishlari rivojiga munosib hissasini qoshgan alloma hisoblanadi. Uning pedagogika, etika, estetikaga oid qarashlari mazkur fanlarning bugungi kuni rivoji uchun o'ziga xos poydevor bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Olimning turkiy jangchilar oilasida tug'ilishi ham uni fan odamiga aylanishiga to'sqinlik qilmagan [1:152]. Sharq odatiga ko'ra bolalarni erta talimga jalb qilinishi sababli olim ham bilimlarni u oz yurtida egalladi. M.M.Xayrullayevning takidlashicha, "Abu Nasr al-Forobiyning hayot yoli togrisida bugungi kunda juda oz malumotlar bor"[1:40]. Lekin shunday bolsa ham, bazi ahamiyatga ega malumotlar bizgacha yetib kelgan va ular haqida toxtalib otish lozim. Jumladan, al-Forobiy ozga yurtlarga ketishdan oldin Shosh (Toshkent shahri) va Samarqand shaharlarida bolgan, Buxoroda bir qancha muddat istiqomat qilib, ilm olgan va ishlagan. Songra Isfaxon, Xamadon, Ray va boshqa shaharlar orqali Bagdod shahriga borgan. [1:40]

**Asosiy qism:**

Bagdod shahrida al-Forobiy orta asrlar ilm-fanining barcha sohalarini qunt bilan organishga kirishgan. U bilim olishda odam tanlamagan. Yunon tilini nosoriy (xristian) Abu Bashar Mattadan, tibbiyot va mantiqni yahudiy tabibi Yuxanna ibn G'aylan kabi kishilardan organdi[1:40]. Al-Forobiy koproq falsafa,

matematika, mantiq, tibbiyot, musiqa ilmlari bilan shugullanishni xush korgan. Shuningdek, filologiya va tillarni organish ustida ham kop ishlagan va 70 dan ortiq tillarni bilgan [3;152].Al-Forobiy Aristotelning kitobini yaqin tanishlaridan olib oqiy boshlagani va yaxshi tushunmaganligi sababli, Jon haqida asarini yuz marotaba, Ritorika asarini esa ikki yuz marotaba oqib chiqqanligi hamda ana shu Aristotelning asarlari uning falsafa ilmiga kirib kelishiga sabab bolgani tarixdan malum. Al-Forobiyning axloqiy tarbiyaga oid goyalarining shakllanishida Aristotelning Etika asari katta ahamiyat kasb etgan[1:40].Al-Forobiy ilm bilan toliq shugullanishiga qadar, qozi lavozimida, shuningdek, davlatning boshqa yuqori vazifalarida ham ishlagan, songra ilm toliblariga dars berish bilan shugullangan.

Demak, u islom axloqi va huquqi hamda pedagogika ilmlaridan ham xabardor bolgan. Bu bilimlari uning fozil odamlar shahri insonlarini tarbiyasi haqidagi goyalari bilan tanishgan vaqtda yaqqol seziladi.

“Forobiy Somoniylar davlatida ham bolgan, -deb yozadi akademik M.M. Xayrullayev,- u Somoniylar hukmdori Mansur ibn Nuhga “At-Ta’lim as-Soniy (Ikkinchi talim) risolasini yozib bergan. Shundan keyin Muallim as-Soniy, yani Ikkinchi muallim nomiga sazovor bolgan[2:160].Olimlarning fikricha, al-Forobiy Bagdodda 929-932 yillar oraligidagi davrda yashagan. 941 yilda Damashqqa kochib kelgan va qolgan umrini shu yerda otkazgan. U “Fozil shahar aholisining qarashlari” asarini Damashqda yozib tugatgan. Al-Forobiy Suriyaning Halab shahriga ham tez-tez borib turgan va u yerdagi olimlar bilan muloqotda bolgan. Chunki shahar hukmdori Sayfuddavla ilm va fan ahlining homiysi bolganligi sababli, Halabda juda kop ilm-fan fidoyilari qonim topgan edilar.Abu Nasr al-Forobiy hijriy 339 yil rajab oyida (milodiy 950-951 yillarda dekabr-yanvar oylari oraligida) vafot etdi va Damashqdagi Bob as-Sagir qabristonida dafn qilindi.Kopchilik orta asr olimlari al-Forobiyni etiqodli musulmon ekani togrisida yozadilar, shuningdek, uning Orta Osiyodan chiqib ketishini musulmon dunyosining muqaddas shaharlari Makka va Madinaga safar qilish niyatida bolganligi bilan tushuntiradilar.

Al-Forobiy yuksak insoniy fazilatlar sohibi bolib, o’zga qanoat qilar, boylikka hirs qoymagan, kamtar, muloyim, doimo boshqalar uchun yordamga shay inson bolgani va Xalifotning boy madaniy markazlarida yashaganiga qaramay, oz yurti muhabbati bilan yashagani haqida kop ma’lumotlar mavjuddir. Al-Forobiyning ilmiy merosi juda boydir. Uning asarlari soni haqida hali ham aniq bir raqam yoq. Bazilar 80 ta desa, boshqalari 130 ta deb korsatadi, -deb yozadi akademik M.M.Xayrullayev, turk olimi Ahmad Otash bu korsatkichni 160 ta deb takidlaydi va Istanbul kutubxonalaridan Forobiyga tegishli shuncha risolalar ro’yxatini tuzdi [1:160].Al Forobiyning o’z davrning barcha ilmlaridan xabardor ekanligiga, uning “Kitob ihso al ulum va tartibiho (Ilmlar tasnifi va ular tartibi haqidagi kitob asari yorqin misoldir). Bu asarida al Forobiy barcha fanlarni quyidagicha tasniflab chiqadi:

- 1.Til haqidagi ilm. U yetti bo’limdan iborat bolib, grammatika, poetika, to’g’ri yozuv va boshqalarni o’z ichiga oladi.
- 2.Mantiq. Sakkiz bo’limdan, jumladan tushuncha, muhokama, xulosa, hamda muhokama metodika taalluqli sillogistika, dialektika, sofistika va boshqa bo’limlarni o’z ichiga oladi.
3. Matematika, yetti mustaqil ilm: arifmetika, geografiya, optika, sayyoralar, musiqa, og’irlik, mexanika haqidagi ilmlardan iborat.
4. Ilm at Tabiiy va ilm al-Ilohiy tabiiy va ilohiy ilmlar yoki metafizika.
5. Siyosat ilmi, shahar haqidagi ilm, shaharni boshqarish ilmi. huquqshunoslik fiqh, musulmon teologiyasi kalom.

Xulosa qilib aytganda, Abu Nasr Forobiy yunon va boshqa millat vakillari bo’lgan olimlarning ilmiy qarashlarini izohlabgina qolmay, ularni yangi g’oyalar asosida boyitib ham bordi. Agar Yevropa davlatlari ilmiy taraqqiyoti bilan taqqoslaydigan bo’lsak, mazkur davrda ilm fan, tarbiyashunoslik, pedagogik tafakkur tushunchalari yevropaliklar tomonidan etiborga ham olinmagan bir paytda, O’rta Osiyo mintaqasida ijtimoiy fan sohalarining poydevori yaratildi.



**Foydalanilgan adabiyotlar royxati:**

1. Хайрулаев М.М. Абу Наср ал – Фороби. – М.: Наука, 1982. – С. 40-43.
2. Хайрулаев М.М. Фараби. Эпоха и учение. – Т.: Фан, 1975. – С. 152 – 163 б.
3. Хайрулаев М.М. Abu Nasr Forobiy. // Muloqot. – 1997. - № 4.